

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2020
6-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.
tdpujournal@mail.ru*

ta'kidlanmoqda. Ko'pchilik klassik musiqa ruhiy rivojlanish va jismoniy holatga ijobiy ta'sir qilishini tushunadi.

Shunday qilib, yoshlarga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab ta'limiy vositalar orasida musiqa muhim o'rin tutadi. Musiqa orqali tarbiyalash jarayonida inson musiqiy qadriyatlarni puxta egallaydi, ma'naviy rivojlanadi va san'at bilan shug'ullanadi. Zero, san'at bilan shug'ullangan inson faqat yaxshi amallar sohibiga aylanadi.

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZARRALAR FIZIKASIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Madaliyev A.M. – Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola amaliy mashg'ulotlarda masala yechishning fanni o'rganishdagi o'рни, ahamiyati hamda zarralar fizikasidan masalalar yechishning o'ziga xosliklariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: elementar zarra, elektron, proton, neytron, foton, kvant, yadro, energiya, impuls, saqlanish qonunlari, metod.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ЧАСТИЦ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Мадалиев А.М. – преподаватель Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. Данная статья посвящена роли и значению решения задач на практических занятиях при изучении предмета и особенностям решения задач по физике частиц.

Ключевые слова: элементарная частица, электрон, протон, нейтрон, фотон, квант, ядро, энергия, импульс, законы сохранения, метод.

THE ORGANIZATION OF PRACTICAL CLASSES IN ELEMENTARY PARTICLE PHYSICS AT PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Madaliev A.M. – Lecturer of the Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. This article is devoted to the role and importance of problem solving in practical classes in the study of the subject and the features of solving problems in particle physics.

Key words: elementary particle, electron, proton, neutron, photon, quantum, nucleus, energy, momentum, conservation laws, method.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida jahon standartlari darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni yuksak ma'naviyatli va bilimli, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy va kommunikativ faol shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi izchil amalga oshirib kelinmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash,

jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini erkin, izchil va aniq ifoda etib bera oladigan barkamol avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida subyekt-obyekt munosabatlarini, o'qitishning zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarini amaliyotga samarali tatbiq etish hamda bo'lajak mutaxassislarni samarali muloqot texnologiyalari va texnikasiga tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bizga ma'lumki, fizikani o'qitishdan asosiy maqsad, birinchidan, tabiatning fundamental qonunlarini ilmiy asosda tushuntirish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarash va falsafiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, texnikada va turmushda foydalanilayotgan uskuna va vositalarning ishlash prinsipini tushuntiruvchi fizik jarayonlar haqida tasavvurlarni shakllantirish bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim olishni davom ettirish, olgan bilimlarini chuqurlashtirish va ilmiy izlanishlarni davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratishdan iboratdir.

Fizika o'qitishda masala yechish muhim ahamiyatga ega. Masala yechish – fizika o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, unda nazariy bilimlar har tomonlama mustahkamlanadi, fizik tushunchalar shakllanadi, fizik fikrlar rivojlanadi, olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasi va malakasi shakllanadi va rivojlanib boradi. Fizikadan masalalarni yechish orqali yangi axborotlar berish, muammoli vaziyat hosil qilish va o'quvchilarga muammo qo'yish, amaliy malaka va ko'nikmani shakllantirish, o'quvchilar bilimining mustahkamligi va chuqurligini sinash, nazariy materialni mustahkamlash, umumlashtirish va takrorlash, texnika yutuqlari bilan tanishtirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Masala yechish orqali talabalar mustaqil mulohaza yuritish va faoliyat olib borishga o'rgatiladi.

Talabada uchraydigan asosiy kamchilik bu masala shartini tushunmasdan, uni yetarli darajada muhokama qilmasdan turib, tayyor formulalar orqali masalani yechishga urinishidir. Bu holatda vujudga keladigan didaktik muammolardan biri talabaning berilgan fizik masalada kechayotgan fizik jarayonning xayoliy modelini tasavvur eta olmasligidadir. Ayniqsa, fizikaning zarralar fizikasi bo'limiga oid masalalarning aksariyati tasavvur bilan bog'liq bo'lgan masalalardir. Masala yechish davomida talaba yuqorida keltirilgan muammolarga uchrashi uning masalani yechishga bo'lgan harakati so'nishiga olib keladi. Natijada, u uchun mavzularning, umuman, zarralar fizikasi fanining mazmuni yo'qoladi. Yuqorida keltirilgan pedagogik-didaktik muammolarni hal etish uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalarida zarralar fizikasidan amaliy mashg'ulotlarning mazmunini ishlab chiqish, buning uchun esa amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli darajada nazariy mavzularni har tomonlama mustahkamlashga xizmat qiladigan amaliy masalalardan iborat materiallarni tayyorlash, ularni hayotiy misollar, har kunlik turmushda, fan va texnikada, meditsina va boshqa sohalarida qo'llanib kelinayotgan turli xil asbob-uskuna va qurilmalar bilan bog'lab bayon qilish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida talabalar qiziqishini uyg'otishi tabiiy.

Zarralar fizikasi bo'limining yaxshi o'zlashtirilishi ma'ruza mashg'ulotlarida olinadigan nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar davomida mustahkamlanishiga bog'liq. Nazariy bilimlar ma'ruza mashg'ulotlarida tushunarli bo'lib tuyuladi, lekin, aslida, talaba ongida hali bir yaxlit bo'lib mujassamlashmagan bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarda berilgan nazariy bilimlar turli jarayonlarni tahlil qilish natijasida yanada mustahkamlanadi va shu o'quv predmetining yaxlitligini, mujassamligini ta'minlaydi. Elementar zarralar fizikasida masalalarning asosiy qismini zarralarning parchalanish yoki o'zaro ta'sir jarayonlarini tahlil qilish tashkil etadi. Albatta, bu jarayonlar o'zaro ta'sir turiga qarab energiya, impuls, impuls momenti hamda spin, izotopik spin, g'alatilik, maftunkorlik kabi kvant sonlarining saqlanish yoki saqlanmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Talabalar bu jarayonlarni yaxshi tahlil qila bilishlari hamda ularda ma'lum darajada ko'nikmalar

shakllanishi kerak. Agar nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanmasa, talabalar bilim va tasavvurlarining yuzaki bo'lishiga olib keladi¹.


Zarralar dunyosidagi simmetriyalar va kvant sonlari, ularning turli fundamental o'zaro ta'sirlarda o'zini qanday tutishi – saqlanishi yoki buzilishi, zarralarning turli o'zaro ta'sir jarayonlarida ishtirokini o'rganish va tahlil qilish kabi barcha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, zarralar olami to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishni amaliy mashg'ulotlarda masalalar yechish orqali amalga oshirish mumkin.

Zarralar fizikasidan masalalar yechishning o'ziga xosligi shundaki, zarralar olamida bo'layotgan jarayonlarni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmazligi hamda ularning chuqur tasavvurga asoslanganligidadir.

Biz pedagogika oliy ta'lim muassasalarida zarralar fizikasidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va unda zarralar dunyosida bo'layotgan jarayonlarni tushuntirish uchun ayrim masalalar va ularning yechilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Zarralar fizikasidan masalalar parchalanish jarayoniga, o'zaro ta'sirlarda ishtirok etishiga, saqlanish qonunlarining bajarilishi va bajarilmasligiga ko'ra klassifikatsiyalanadi.

Jarayon $a + b \rightarrow c + d + f + \dots$ ko'rinishida amalga oshsa, kuchli o'zaro ta'sir jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonga quyidagini misol keltirishimiz mumkin. O'zaro ta'sir jarayonida π^0 – mezonning hosil bo'lishini oladigan bo'lsak, ikki protonning o'zaro to'qnashuvida neytral π^0 – mezon tug'ilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jarayonning sodir bo'lish reaksiyasi quyidagicha bo'ladi:




Bu jarayon amalga oshishi uchun protonlarning kinetik energiyasi massasi 135 MeV bo'lgan π^0 – mezonning hosil bo'lishi uchun yetarli bo'lishi kerak. To'qnashuvdan oldingi protonlarning kinetik energiyasi π^0 – mezonning tinchlikdagi massasi ko'rinishga o'tadi, energiyaning qolgan qismi esa hosil bo'lgan uchta zarraning kinetik energiyasi sifatida taqsimlanadi.

Energiyaning saqlanishi bilan bir qatorda elektr va barion zaryadining saqlanishini ham ko'rishimiz mumkin. Jarayonda qatnashayotgan zarralar (p) barion va (π^0) mezon bo'lib, stabil adronlar sinfiga kiradi. Adronlar kuchli o'zaro ta'sirda ishtirok etadi. π^0 – mezon haqiqiy neytral zarra ($\pi^0 = \bar{\pi}^0$) bo'lganligi uchun elektromagnit o'zaro ta'sirda qatnashmaydi. Demak, bu jarayon kuchli o'zaro ta'sir natijasida sodir bo'ladi.

Parchalanish jarayoni $a \rightarrow b + c + \dots$ ko'rinishda amalga oshadi. Bu jarayon kuchsiz o'zaro ta'sirda bo'ladi. Kuchsiz o'zaro ta'sirda, asosan, leptonlar ishtirok etganligi uchun hosil bo'luvchilarga qarab sof lepton jarayoni $\tau^- \rightarrow \bar{\nu}_e + \bar{\nu}_{\mu} + \nu_{\tau}$ va yarim yoki sof bo'lmagan lepton jarayoni

$\tau^- \rightarrow \pi^- + \nu_{\tau}$ ga bo'linadi. Bularga misol tariqasida quyidagini keltirishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki, har qanday kvant sistema minimal energiyali holatda bo'lishga intiladi. Eng kichik energiyali holat eng kichik massaga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ko'pgina og'ir zarralar yengil zarralarga parchalanadi. Protonning pozitron va fotonga parchalanishini oladigan bo'lsak, bunda energiya va elektr zaryadining saqlanishi bajariladi.



Lekin protonni yengil zarralarga aylanishi barion zaryadining saqlanish qonuniga ko'ra ta'qiqlangan² $p \nrightarrow e^+ + \gamma$, ya'ni bu jarayon sodir bo'lmaydi.

1 Мадалиев А.М. Зарралар физикаси амалий машғулотларининг такомиллаштирилган мазмуни// ТДПУ илмий ахборотлари. –Тошкент, № 3 (19) 2019. –Б. 63 –67.

2 Р.Б.Бекжонов. Атом ядроси ва зарралар физикаси. Тошкент. Ўқитувчи 1995 й. -576 б.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, parchalanishda hosil bo'layotgan zarralar parchalanayotgan zarraning tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin emas. Bu degani parchalangan zarra hosil bo'layotgan zarralardan tarkib topmaydi. Parchalanishda hosil bo'ladigan zarralar bevosita parchalanish jarayonida hosil bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda masalalar yechishdan avval mashg'ulot mavzusiga tegishli qonunlar, kattaliklar, jarayonlar va qonuniyatlar qaytadan takrorlab olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu takrorlash o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlari orqali amalga oshirilishi yaxshi samara berishi aniqlangan. Qo'llaniladigan metodni shunday tanlab olish kerakki, u mashg'ulot mazmunini belgilab bera oladigan bo'lishi muhim.

Yuqorida keltirilgan va shunday tipdagi masalalarni yechish va tahlil qilish orqali zarralar olamidagi ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, chuqur tasavvurga asoslangan hodisa va jarayonlarni tushuntirib berishimiz muki. Bu esa o'z navbatida talabada (bo'lajak o'qituvchida) bu jarayonlar to'g'risida chuqur tasavvur hosil bo'lishiga, ularning dunyoqarashini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashini kengaytirishga keladi.

SONLAR KO'PAYTMASINI HISOBLASHNING INNOVATSION USULLARI

Mamadaliyev B.K. – Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ba'zi natural sonlar ko'paytmasini og'zaki hisoblashga imkon beruvchi formulalar yaratilgan va bu formulalardan foydalanib misol va masalalar yechishning kreativ qobiliyatli o'quvchilar tayyorlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, matematik kreativ, natural sonlar, ratsional sonlar, og'zaki hisoblash.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАСЧЕТА ЧИСЕЛ

Мамадалиев Б.К. – преподаватель Андижанский государственный университет

Аннотация. В данной статье разработаны формулы, позволяющие устно вычислить произведения некоторых натуральных чисел, и, используя эти формулы, раскрыты значения в решении задач и примеров в подготовке creatively способных учеников.

Ключевые слова: креативность, математическая креативность, натуральные числа, рациональные числа, устно вычислять.

THE INNOVATIVE METHODS OF CALCULATION OF NUMBERS

Mamadaliyev B.K. – Teacher of Andijan State University

Annotation. In this article, formulas are developed that allow one to verbally calculate the works of certain natural numbers, and using these formulas, the meanings are revealed in solving problems and examples in the preparation of creative pupil.

Key words: creativity, mathematical creativity, natural numbers, rational numbers, verbally calculate.

Hozirgi kunda kreativ qobiliyatli o'quvchilarning xislatlarini o'rganish, uni diagnostika qilish, metodlarini yaratish va ularning qobiliyatlarini aniqlash zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir. O'quvchilarning matematik kreativligini rivojlantirish masalasi ularning tabiatidan kelib chiqqan holda alohida izlanishlarni talab qiladi. "Kreativlik – shaxsning

PEDAGOGIKA	
Xonqulov U.X. Matnli matematik masalalarni yechishga oid metodik mulohazalar	2
Iskandarov A.Y., Alimova F.A. Kimyo fanini o'qitishda axborot texnologiyalari asosiy kompetensiya sifatida	7
Umarov S.B. O'quvchilar orasida ijtimoiy-profilaktik tadbirlarni olib borish	11
Xamedova N.A. Ma'ruza mashg'ulotini «flipped learning» texnologiyasi asosida tashkil qilish metodikasi	17
Yuldasheva Sh.Sh., Yusupova G.A. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligi va o'zbek tili fanining ahamiyati	22
Bozorova M.Q., Suyunov SH.J. Oila tarbiyasi – o'quvchi-yoshlarning milliy-ma'naviy salohiyati rivojlanishi omili sifatida	26
Sindarov, Kayumov. Grafik tayyorlashda o'quv uslubiy majmuani ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uslubiyotini tadqiqoti haqida	29
Gulomova, Saydaliyev. Sharqona me'moriy an'analar asosida talabalarga konstruktiv fazoviy tasavvurni rivojlantirishda chizma geometriyaning o'rni	33
Ibodullayeva, Ismoilov Organik kimyo fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish (insulin moddasi misolida)	37
Rahmatov I.I., Muxammedov Sh.M. Oliy ta'limda kredit-modul tizimidan foydalanishning ilmiy asoslari	41
Buranova Sh.M. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq qilishning dolzarbligi	45
Boratova M.G'. Mustaqil ta'lim – talabalar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish mezonlari	49
Maqsudova H.F. Oliy ta'lim muassasalarida ma'lum maqsadlarda ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	54
Rustamova N.R. O'quvchilarda vitagen texnologiyalar orqali mediamadaniyatni rivojlantirishning samarali metodlari	58
Radjabova O.S., Atayeva M.Y. Optikadan laboratoriya mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogic texnologiyalarning o'rni	62
Xo'jamov M.E. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida Amir Temur omili	67
Shabbazova D.R. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga individual yondashish sharq mutafakkirlari talqinida	72
Abdurasulov A.A Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy fanlarning ahamiyati	75
Almardanova S. Talabalar kasbiy shakllanishi va ma'naviy yuksalishida kopping strategiyaning ahamiyati	79
Elov M. Musiqa ta'limi ijtimoiy va madaniy tarbiya vositasi sifatida	84
Madaliyev A.M Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida zarralar fizikasidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish	88
Mamadaliyev B.K. Sonlar ko'paytmasini hisoblashning innovatsion usullari	91
Maqsudova G. Talabalarning xorijiy tillarni o'rganishini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish	95
Raxmanov A. O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirish texnologiyalari	99
Usmonova M.S. Bo'lajak biologiya o'qituvchisi metodik kompetentligining tarkibiy tuzilishi	104
Ro'ziyeva N.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda oila muhitining ta'siri	112
Xodjayev O.Sh. Masofaviy ta'lim modellari	116
G'ofurova M.A. Mantiqiy masalalar orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish	118
Choriyeva D.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning o'rni va ahamiyati	125
Shayzakova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy shart-sharoitlarda ijtimoiy va madaniy ma'naviyatni rivojlantirish	133
Yarmatov R. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari maxsus kursining o'rni	135
Xolikov Y.T. Globallashtirish sharoitida harbiy xizmatchilar tomonidan milliy qadryatlarni saqlashning o'ziga xos tamoyillari	140
Imomov M.P. Kompetentli yondashuv asosida o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish	146
Hojiyeva Z. Didaktik tizimni modelashtirish – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish omili sifatida	150
Djalalov B. B. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish tushunchasi va tahlili	154
Xo'jaqulov U.I. Elektron axborot-ta'lim muhiti didaktik vositalari orqali talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish	158
D.B.Yakubjanova Innovatsion ta'lim sharoitida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan	

bolalarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	161
Azimova G.U. Kasb-hunar kollejlarda rus tilini o'qitish metodologiyasida "lingvistik yetuklik" va "til bilimi" tushunchalarining qiyosiy xususiyatlari	168
Qudratov A.I. Shaxs ma'naviy ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar va omillar	172
Farmonova Sh.B. Metallar korroziyasi va undan himoyalash yo'llari	177
Ruzimurodov I. N. Elektron ta'lim muhitida bo'lajak dasturchilarning matematik kompetentligini rivojlantirish metodikasi	180
Suyunov Sh.J. O'quvchi-yoshlar milliy-ma'naviy salohiyati rivojida oila tarbiyasiga kreativ yondaashuv	184
Sulaymonova T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maqollardan foydalanish	187
PSIXOLOGIYA	
Xaydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganishga nisbatan nazariy yondashuvlar tahlili	191
Norimbetov T.B. Norimbetova N.T. Kichik maktab yoshida o'yin va o'quv faoliyati motivlarinig psixologik xususiyatlari	197
Sharafutdinova X. Shaxs psixologiyasi muammolari va kognitiv psixoterapiya	201
Eshmuradov O.E. O'zbek nikoh-oila munosabatlarining tarixiy va ijtimoiy psixologik talqini	206
Jabborova A., Umarqulova M. Yozma nutqdagi matnlarning psixologik xususiyatlari	211
Sattorova M.D. Sotsial tolerantlik – davr talabi	215
Maxatova N.I. Rahbarning boshqaruv qobiliyatlari va uni baholashning psixologik jihatlari	219
Shukurov R.E. Turli psixologik yondashuvlarda shaxs dindorligining xususiyatlari	224
FILOLOGIYA	
Popov D.V. Kanselyarizmlar tarixiy uslubiy kategoriya sifatida	230
Qo'shoqova B.Y. Diniy leksikani o'rganishda turli yondashuvlar	235
Makhmatkulov Kh.M., Makhmatkulova Z.Kh., Alimov A.A. Interference on the syntactical levels in the english – uzbek languages	239
Xudayarova M.T. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari	244
Bakiyeva M.P. O'zbek talabalarining rus tilida elektron xatlar yozishi uchun metodologik tavsiyalar	248
Bozorov S. Normurod Norqobilov hikoyalarida xarakter va ruhiyat birligi	250
Xolxo'jayev Sh. Arab hikoyachiligining rivojlanishi	255
Ahmedova V. "Muvozanat" romani va instsenirovkasining qiyosiy talqini	259
Madaminova R.M. O'zbek tili leksikasi taraqqiyoti: XXI asr boshlaridagi olinma so'zlar haqida	266
TARIX	
Otegenenov X. M. Jumaniyozov D. Erjanova G.M. 1916-yilgi Xiva xonligidagi qo'zg'olon tarixi bo'yicha xalq ijodi	271

Bosh muharrir:
Umarov Alisher Yusubjanovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

Tahrir hay’ati:
Asqarov A.A., Djurayev R.X., Begimkulov U.Sh., Muslimov N.A.,
Xaliqov A.A., Djamilova N.N., Raupova L.R., Sadikova A.V.,
Abduazimov A., Mamarajabova Z.N., Masharipova U.A.,
Xalilova N.I., Nurillayev M.N., Yakubova G.A., Ahmedova N.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy.
e-mail: tdpujournal@mail.ru

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nashr” bo‘limida chop etildi.
Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₈
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy.